

HARBIY XIZMATCHILARNI MA'MURIY USHLAB TURISHDA ULARNING HUQUQLARINI TA'MINLASH MASALALARI

A.A. Tursunboyev

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21208274>

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarni ma'muriy va intizomiy javobgarlikka tortishning o'ziga xos xususiyatlari, ularning huquqiy hamda protsessual asoslari batafsil tahlil qilinib, harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun, qonunchilikda to'g'ridan to'g'ri belgilangan istisno holatlardan tashqari, umumiy qoidaga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Intizom nizomiga muvofiq intizomiy jazo choralari qo'llanilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy xizmatchilar, ma'muriy javobgarlik, intizomiy javobgarlik, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuritish, intizomiy ta'zir (jazo) choralari, intizomiy qamoq, ma'muriy huquqbuzarlik bayonnomasi.

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ПРИ ИХ АДМИНИСТРАТИВНОМ ЗАДЕРЖАНИИ

Аннотация. В данной статье подробно анализируются особенности привлечения военнослужащих к административной и дисциплинарной ответственности, их правовые и процессуальные основы. За административные правонарушения, совершенные военнослужащими, за исключением случаев, прямо предусмотренных законодательством, по общему правилу применяются меры дисциплинарного взыскания в соответствии с Дисциплинарным уставом Вооруженных Сил Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Военнослужащие, административная ответственность, дисциплинарная ответственность, производство по делу об административном правонарушении, дисциплинарные меры (наказания), дисциплинарный арест, протокол об административном правонарушении.

ISSUES OF ENSURING THE RIGHTS OF MILITARY SERVANTS DURING THEIR ADMINISTRATIVE DETENTION

Annotation. This article analyzes in detail the specifics of bringing military personnel to administrative and disciplinary responsibility, their legal and procedural foundations. For administrative offenses committed by military personnel, as a general rule, disciplinary sanctions are applied in accordance with the Disciplinary Regulations of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, with the exception of cases directly established by law.

Keywords: Military personnel, administrative liability, disciplinary liability, administrative offense proceedings, disciplinary measures (punishments), disciplinary arrest, administrative offense report.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi qonun hujjatlari ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish va qo'riqlashni ta'minlashga qaratilgan. Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun, shaxs, ularni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslar ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va asoslarda javobgarlikka tortiladi.

Shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortishda qonuniylikning belgilangan talablariga qat'iy rioya qilish sodir etilgan huquqbuzarliklarga ma'muriy qonunchilikning maqsadlariga muvofiq har tomonlama va to'liq chora ko'rish imkonini beradi, ya'ni huquqbuzarliklarning

oldini olish va ularga chek qo'yish, davlat, jamiyat hamda alohida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Rus olimi S.V.Yarkovoy to'g'ri ta'kidlaganidek, "ma'muriy protsessda qonuniylikni ta'minlash huquqbuzarlarni ma'muriy javobgarlikka tortish masalasini hal qilishda huquqbuzarlarning o'z huquq va manfaatlarini ta'minlash va himoya qilishning asosiy kafolati bo'lib xizmat qiladi[1]".

Harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan ma'muriy va intizomiy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning ma'muriy va intizomiy turlari belgilangan. Shundan kelib chiqib, umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan ma'muriy huquqbuzarliklar tarkibini hamda harbiy xizmatchilar intizomiy javobgarlikka tortiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar tarkibini ajratib ko'rsatish mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining[2] 16-moddasi 2-qismida ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun ma'muriy huquqbuzarlikning malakasiga qarab harbiy xizmatchilar ham intizomiy, ham ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerakligini nazarda tutadi. Bunda, umumiy qoidaga ko'ra, harbiy xizmatchilar intizomiy javobgarlikka tortiladi, mazkur huquqiy normaning ikkinchi qismida to'g'ridan to'g'ri belgilangan hollar bundan mustasno ekanligi belgilangan.

Intizomiy javobgarlik ham, ma'muriy javobgarlik ham huquqni qo'llovchi davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilishiga munosabatini aks ettiradi.

Harbiy xizmatchilarning sodir etgan ma'muriy huquqbuzarliklari uchun ma'muriy va intizomiy javobgarligi o'rtasidagi asosiy bir qator farqlar mavjud. Umumiy ma'noda, intizomiy javobgarlik ma'muriy javobgarlikdan mehnat va xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq xizmat munosabatlari, jumladan, iyerarxik, ya'ni hokimiyat-bo'ysunuv munosabatlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning intizomiy javobgarligi masalasi mehnat qonunchiligi normalaridan tashqarida bo'lib, bu O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 11-moddasiga mos keladi[3].

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Intizom nizomining 43-bandiga muvofiq harbiy intizomni buzgan yoki ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etgan uchun harbiy xizmatchi shaxsan intizomiy javobgar bo'ladi[4]. Intizomiy jazoga tortish tartibi to'g'risidagi masalani hal etish uchun harbiy xizmatchi tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Intizom nizomining 4-bandida ko'rsatilgan intizomiy nojo'ya xatti-harakatni, ya'ni intizomiy javobgarlikka sabab bo'luvchi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari bilan belgilangan xizmat yoki harbiy intizomni, o'zini tutishning me'yor va qoidalarini, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzish fakti asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, qonun chiqaruvchi harbiy xizmatchilarning axloqiy va kasbiy fazilatlariga yuqori talablarni shakllantirgan bo'lib, amaldagi qonunchilikni har qanday ko'rinishda buzish harbiy intizomni buzish sifatida baholandi va o'z navbatida intizomiy javobgarlikka olib keladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining asosiy qoidalarini takrorlaydigan, harbiy xizmatchilarni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan Intizom nizomining 47-bandi 2-xatboshisidagi normalar alohida qiziqish uyg'otadi. Ularni sodir etganlik uchun harbiy xizmatchilar Qurolli Kuchlarning Intizom nizomiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortilishi qonun chiqaruvchi tomonidan to'g'ridan to'g'ri belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilgan hollar bundan mustasno ekanligi belgilab o'tilgan. Shu bilan birga, ma'muriy jazolarning ayrim turlarini qo'llashda istisnolar ham keltirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ma'muriy va intizomiy javobgarlikning moddiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ma'muriy huquqbuzarlik deb belgilangan qilmish hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'rsatilgan javobgarlik turlari o'rtasidagi farqlarni o'rganish uchun ularning protsessual asoslarini, ya'ni harbiy xizmatchilarni o'rganilayotgan javobgarlik turlariga jalb qilishda vakolatli organlar va mansabdor shaxslarning harakatlari tartibini aniqlash zarur deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 271-moddasi, shuningdek tegishli sabablar bo'yicha 269³, 275 va 279-moddalarda belgilangan asoslarga ko'ra ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atiladi. Ushbu huquqiy normaning qoidalari bizga harbiy xizmatchi tomonidan Qurolli Kuchlar Intizom nizamida javobgarlik nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, bu O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan umumiy tartibda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atishga to'sqinlik qiladigan asos hisoblanmasligini ta'kidlash imkonini beradi. Biroq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga ko'ra, harbiy xizmatchi tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilishi, agar u umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerak bo'lgan hollar bundan mustasno bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yurituvni istisno qiladigan holat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 271-moddasiga muvofiq, bunday ish harbiy xizmatchini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizamiga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortish uchun ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan holatlar aniqlangandan so'ng tugatilishi kerak. Ma'muriy tartib intizomga o'tish harbiy xizmatchilarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarligi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritish doirasida amalga oshiriladi va faqat O'zbekiston Respublikasi MJTK normalari asosida ma'muriy huquqbuzarlik qo'zg'atilgandan, tegishli bayonnoma tuzilgandan, sodir etilgan huquqbuzarlikning barcha holatlari aniqlangandan va ish yuritish tugatilgandan keyingina mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Intizom nizomi normalarining harbiy xizmatchilarni intizomiy javobgarlikka tortish asoslari va tartibiga oid mazmunidan kelib chiqib, intizomiy jazo harbiy intizomni mustahkamlashning muayyan vositasi bo'lishi kerakligi belgilangan. Bu esa sodir etilgan intizomiy nojo'ya harakatning og'irligini huquqbuzarlik holatlari va harbiy xizmatchining aybi darajasi bilan mutanosiblashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizamiga ko'ra, harbiy xizmatchilarga ularning toifasiga qarab quyidagi intizomiy ta'zir (jazo) turlari qo'llaniladi:

Muddatli harbiy xizmatchilarga qo'llaniladigan intizomiy ta'zirlar: hayfsan, harbiy qism (muassasa) hududidan navbatdagi javob (ruxsat) berishdan mahrum qilish, kursantni intizomsizligi sababli oliy harbiy ta'lim muassasasidan o'qishdan chetlashtirish.

Oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga qo'llaniladigan intizomiy ta'zirlar: hayfsan, qattiq hayfsan, lavozimda pastlatish, harbiy unvonini bir pog'ona pasaytirish, serjantlar tarkibi harbiy unvonidan mahrum qilish, intizomsizligi sababli oliy va boshqa harbiy ta'lim muassasasidan o'qishdan

chetlashtirish, harbiy xizmatchi nomiga dog‘ tushiruvchi xatti-harakat sodir etganligi uchun vazirlik tashabbusi bilan kontraktni muddatidan oldin bekor qilish.

Intizomiy jazoni belgilash harbiy xizmatchining unvoniga bog‘liq bo‘lib, bunday jazolar Qurolli Kuchlarining Intizom nizomida mavjud bo‘lishi va huquqbuzarni intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risida qaror qabul qiladigan komandir yoki boshliqning intizomiy hokimiyatiga mos kelishi kerak. Bundan tashqari, ularni qo‘llashning intizomiy ish yuritish shaklida taqdim etilgan protsessual tartibi belgilangan.

Harbiy xizmatchilarni ular tomonidan sodir etilgan ma‘muriy huquqbuzarliklar uchun intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha ish yuritish bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Qurolli Kuchlari Intizom nizomining 81-bandini va ko‘rsatilgan ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilishiga sabab bo‘lgan norma harbiy xizmatchi intizomiy javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi MJTK normalari harbiy xizmatchilarga nisbatan ma‘muriy qamoq kabi jazoni qo‘llashni nazarda tutmasligini hisobga olgan holda, qonunchilikda shaxslarning qonun oldida tengligi prinsipi ta‘minlangan va Intizom nizomiga tegishli normalar kiritilgan bo‘lib, ular bilan harbiy xizmatchilar uchun ma‘muriy qamoq intizomiy qamoq bilan almashtirilgan. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomiga muvofiq, intizomiy qamoq jazosi faqat harbiy xizmatchi sodir etgan ma‘muriy huquqbuzarlik uchun O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida ma‘muriy jazo sifatida ma‘muriy qamoq nazarda tutilgan hollardagina qo‘llanilishi mumkin. Bunda intizomiy qamoq muddati O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining tegishli moddasi sanksiyasi bilan bunday ma‘muriy huquqbuzarlik uchun belgilangan ma‘muriy qamoq muddatiga mos bo‘lishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarning ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun intizomiy javobgarligi harbiy xizmatchilarning ommaviy-huquqiy maqomi va qonuniy faoliyatining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, huquqbuzarlarning qonun oldida tengligi tamoyilini ta‘minlashga, shu bilan birga harbiy xizmatni o‘tayotgan shaxslarni yanada imtiyozli holatga qo‘ymaslikka qaratilgan.

Harbiy xizmatchilarning intizomiy va ma‘muriy javobgarligini chegaralash protsessual normalar doirasida, ish qo‘zg‘atilganidan so‘ng ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi materiallarni ko‘rib chiqish bosqichida amalga oshiriladi. Chunki harbiy xizmatchilarni intizomiy javobgarlikka tortishga faqat ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatilganidan keyingina yo‘l qo‘yiladi.

Bundan tashqari, ko‘rsatilgan materiallar intizomiy jarayonni tartibga soluvchi qoidalarga muvofiq ko‘rib chiqilishi kerak va harbiy xizmatchini Intizom Nizomga muvofiq tan olingan ma‘muriy huquqbuzarlik bo‘lgan qo‘pol intizomiy huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning ushbu yuridik javobgarlik turlarini chegaralash o‘ziga xos huquqiy normalarni, xususan, tartibga soluvchi qonunchilikda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan bo‘shliqlar va nomuvofiqliklarni bartaraf etishga qaratilgan normalarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi.

Shu tariqa, qonun chiqaruvchi tomonidan harbiy xizmatchilarga nisbatan intizomiy jazolarning ayrim turlarini, masalan, intizomiy qamoqni qo‘llash tartibini belgilaydigan maxsus normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Bizningcha, O'zbekiston MJTKga "Ma'muriy ish qo'zg'atish asoslari va sabablari" to'g'risidagi alohida moddani kiritish, harbiy xizmatchilarga umuman, ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni yuritishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Natijada huquqni qo'llash amaliyotida asossiz bayonnomalar tuzilishining oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ярковой С. В. Законность привлечения к административной ответственности: понятие, содержание и основные требования // Вестник Омской юридической академии. 2017. Т. 14. № 4. С. 109–115.
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi" // www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi" // www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi 23-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga 2-ilova, "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi", O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/uz/>